

# Sarimoy-Muruntov EHUL

## Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB):

### I jild – Notexnik hisobot

Konsalting Firmasi:

**Juru**

Juru Ltd

Suite 1, One George Yard, London

Buyuk Britaniya, EC3V 9DF

T: +44 207 859 4028

[www.juru.org](http://www.juru.org)

Uchun tayyorlangan:



**“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ (O‘zMET)**

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ

100084, O‘zbekiston, Toshkent sh., Yunusobod tumani,

Osiye ko‘chasi, 42-uy.

[www.uzbekistonmet.uz](http://www.uzbekistonmet.uz)

## Hujjat haqida ma'lumot

<b>Loyiha nomi</b>	Sarimoy-Muruntov EHUL uchun ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB)
<b>Hujjat nomi</b>	I jild - Notexnik hisobot
<b>Juru loyihasiga havola</b>	UZB-EBRD-SRMY-MURN OHTL ESIA
<b>Buyurtmachi</b>	O'MET
<b>Juru loyiha menejeri</b>	Nikola Devis
<b>Juru loyiha direktori</b>	Jushkinbek Ismoilov

## Hujjat nazorati

Versiya	Sana	Tavsifi	Muallif	Tekshirilgan	Tasdiqlangan
1.0	2023 yil 01 dekabr	EITB loyihasi: I jild – NTH (maslahatlashuv uchun loyiha)	Bir guruh mualliflar	Marianne Lupton	Nikola Devis
2.0	2024 yil 07 fevral	Yakuniy EITB loyihasi: I jild – NTH (Buyutmachining izohlari uchun loyiha)	Bir guruh mualliflar	Marianne Lupton	Nikola Devis
3.0	2024 yil 26 fevral	Kreditorning izohlarini hal qilish uchun yangilangan	Bir guruh mualliflar	Marianne Lupton	Nikola Devis
4.0	18 mart 2024 y.	Oshkor qilish uchun loyiha	Bir guruh mualliflar	Marianne Lupton	Nikola Devis

## Voz kechish

Notexnik hisobot ("Hisobot") "Juru" kompaniyasi tomonidan tayyorlandi. Hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlar hozirgi holatining aksi bo'lsa-da, "Juru" ushbu Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi va hech qanday ma'lumot uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Ushbu Hisobot faqat YeTTB va O'MET uchun tayyorlangan. YeTTB ushbu hujjatdagi ma'lumotlarning to'g'riligi yoki to'liqligi bo'yicha aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi. YeTTB ushbu Hisobotda ma'lumotlarning birortasini mustaqil ravishda tasdiqlamagan va undagi har qanday ma'lumot, noto'g'ri yoki ko'rsatilmagan ma'lumotlar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Hisobot YeTTB mulki bo'lib qoladi.

## **Mundarija**

Qisqartmalar	6
Kirish	7
1 Kirish so'zi	9
1.1 Loyiha to'g'risida umumiy ma'lumot .....	9
2 Loyihaga ehtiyoj va muqobillar variantlar	11
2.1 Loyihaga ehtiyoj .....	11
2.2 Muqobil variantlar .....	11
3 Baholashga yondashuv	13
3.1 Baholash asosi .....	13
3.2 Baholash metodologiyasi .....	13
3.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.....	14
3.4 Shikoyatlar ko'rib chiqish mexanizmi .....	15
4 Ekologik va ijtimoiy baholashning qisqacha mazmuni	18
4.1 Loyiha reseptorlari .....	18
4.2 Loyihaning potentsial ijobiy ta'siri.....	20
4.3 Loyihaning potentsial salbiy ta'siri.....	20
4.3.1 Yerni olish, majburiy ko'chish va iqtisodiy ko'chirish	20
4.3.2 Ishchi kuchi kirib kelishi oqimi va jamoa salomatligi va xavfsizligi	22
4.3.3 Biologik xilma-xillik	24
4.3.4 Qurilish ta'sirlari	27
4.3.5 Madaniy meros	29
4.3.6 Iqlim bilan bog'liq xavflar va barqarorlik	29
5 Loyiha ta'sirlarni samarali boshqarish va monitoringini qanday ta'minlaydi?	31
6 Xulosa	32

## **Jadvallar mundarijasi**

1-jadval: Loyiha jadvali.....	10
2-jadval: Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati .....	17
3-jadval: Markaziy liniyadan turli masofalarda 500 kV EHULdan magnit va elektr maydoni .....	23

## **Rasmlar mundarijasi**

1-rasm: EHUL yo'nalishi bo'ylab Qizilqum cho'li.....	9
2-rasm: Sarimoy nimstansiyasi .....	9
3-rasm: EHUL trassasi bo'ylab cho'l landshafti .....	18
4-rasm: Uchquduq qishlog'i.....	18
5-rasm: EHULga parallel o'tgan shag'alli yo'l).....	18
6-rasm: Tabiiy suv havzasi.....	18
7-rasm: Loyihaning joylashuvi va EHUL bo'ylab reseptorlari.....	19
9-rasm: S-M EHUL trassasini (ko'k rangda) ferma yaqinidagi o'zgartirish (sariq rangda).	21
10-rasm: S-M EHUL trassasini (ko'k rangda) rangli metal zonalaridan o'tmasligi uchun o'zgartirish (binafsha rangda). .....	21

## **Diagrammalar mundarijasi**

1-diagramma: EITBni tayyorlash bosqichlari .....	13
2-diagramma: Jamoa shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmidagi bosqichlar (ShKM).....	15

## Qisqartmalar

TH	Ta'sir hududi
FK	Fuqarolik kodeksi
JSX	Jamoa salomatligi va xavfsizligi
DEEM	Davlat ekologik ekspertiza markazi
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
AMXS	Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik
ETB	Ekologik ta'sirni baholash
EMM	Elektr va magnit maydonlari
LXQ	Loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish
E-I	Ekologik va ijtimoiy
EIHR	Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi
EITB	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash
EIBR	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi
EIBT	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi
EIS	Ekologik va ijtimoiy siyosat
GZ	Genderga asoslangan zo'ravonlik
IXA	Ilg'or xalqaro amaliyot
GM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti
YO'TMTA	Yerni olish va tirikchilik manbalarini tiklash asoslari
YeK	Yer kodeksi
ITUL	Ikki tomonlama uzatishli linya
EAI'O'V	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
O'MET	O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari
NTH	Notexnik hisobot
E&TX	Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish
MMX	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik
EHUL	Elektr havo uzatish liniyasi
LAG	Loyihani amalga oshirish guruhi
FT	Faoliyat yuritish talablari
ROW	Servitut
SanQvaN	O'zbekiston sanitariya qoidalari va normalari
SG	Silliq gekkoncha
MTHR	Manfaatdor tomonlar bilan hamkor qilish rejasi
S-M	Sarimoy-Muruntov
NS	Nimstansiya

## Kirish

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ("YeTTB" yoki "Bank") "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatiga ("O'MET" AJ) O'zbekistonda Xorazm viloyatidagi mavjud Sarimoy nimstansiyasi va Navoiy viloyatidagi Muruntov nimstansiyasi o'rtasida (1-rasmga qarang) joylashadigan quvvati 500 kV bo'lgan elektr havo uzatish liniyasini qurilishini ("Loyiha") moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasiga suveren kredit ajratish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda.

YeTTB 2019-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP 2019) va qo'llab-quvvatlovchi faoliyat yuritish talablari (FR) asosida Loyiha uchun Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholashni (EITB) amalga oshirish uchun "Juru Ltd." ("Juru" yoki "EITB maslahatchisi") kompaniyasini tayinladi.

Ushbu hujjatda EITB natijalarining notexnik hisobotini (NTH) taqdim etilgan. Ushbu NTHning maqsadi ekologik va ijtimoiy (E-I) ta'sirini baholash jarayonining dastlabki xulosalarini, shu jumladan jamoatchilik bilan maslahatlashish jarayoni natijalarini aniq va sodda tarzda taqdim etishdan iborat.

YeTTB ushbu Loyihani "A" toifasiga kiritdi. "A" toifasidagi loyihalar keng qamrovli EITB va tegishli hujjatlarni talab qiladi. EITB quyidagi tarzda tashkil etilgan:

- I-jild: Notexnik hisobot (NTH) (mazkur hujjat)
- II-jild: EITB Asosiy hisobiti
- III-jild: Texnik ilovalar
- IV-jild: Ekologik va ijtimoiy boshqaruvning asosiy rejasi (EIBR)
- V-jild: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (MTHR)
- VI-jild: Yerni olib qo'yish va tirikchilik manbalarini tiklash mexanizmi (YeOTTM)

EITB jarayoni, ushbu NTHda aks ettirilganidek, EITB loyihasining natijalarini yetkazish uchun mas'ul tashkilotlar, yerdan foydalanuvchilar va Loyihaga eng yaqin joylashgan aholi yashash punktlarining aholisi bilan tashkil etilgan ommaviy yig'ilishlar natijalarini o'z ichiga oladi. Yakuniy EITB va MTHR loyihasida ushbu maslahatlashuvlarning to'liq xulosasi keltirilgan. EITB hujjatlarining to'plami, shu jumladan ushbu NTH, E-I baholash jarayoni natijalari bo'yicha sharh va fikr bildirish imkoniyatini yaratish uchun 120 kun davomida Kreditor veb-saytida ommaga oshkor qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 541-sonli qarori (2020 yil) bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Ekologik ta'sirni baholash bo'yicha milliy tadqiqot (ETB) EAIO'Vning "Davlat ekologik ekspertiza markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan tasdiqlanishi uchun taqdim etilishi lozim. "O'MET" AJ texnik-iqtisodiy asoslash ishlari doirasida milliy ETBni taqdim etish uchun Juru kompaniyasini yolladi.

Ushbu NTHning o'zbek tilidagi nusxasi bilan quyida keltirilgan manzillarda tanishib chiqish mumkin:

- Tuproqqal'a, To'rtko'l, Peshku, Uchquduq va Tamdi tumanlari hokimiyat idoralari;
- Uzunquduq, Nukus va Sarimoy qishloq fuqarolar yig'inlari.

Savollar yoki sharhlar quyida ko'rsatilgan kanallar orqali ham yuborilishi mumkin.

<b>EITB Maslahatchisi: Juru</b>	<b>Loiyhani ishlab chiqqan tashkilot: O'MET</b>
<b>F.I.Sh.</b> Dostonjon Kuldoshov <b>Manzili:</b> O'zbekiston, Toshkent,100077, Chust ko'chasi., 10 A, <b>Email:</b> <a href="mailto:srmy-murn-esia@juru.org">srmy-murn-esia@juru.org</a> <b>Tel.:</b> +998 (97) 445-95-04, +998 (94) 379-87-47	<b>F.I.Sh:</b> Shuhrat Badalov (Loyihani amalga oshirish bo'limi rahbari) <b>Email:</b> <a href="mailto:piu.Sarimoy.muruntau@gmail.com">piu.Sarimoy.muruntau@gmail.com</a> <b>Tel:</b> +998 (99) 856-56-92



## 1 Kirish so'zi

### 1.1 Loyiha to'g'risida umumiy ma'lumot

“O'MET” AJ tomonidan taklif etilgan 500 kV Sarimoy-Muruntov Elektr havo uzatish liniyasi loyihasi (S-M EHUL yoki “Loyiha”) Qizilqum cho'lining janubi-g'arbiy qismida joylashgan. U Xorazm viloyatidagi mavjud Sarimoy nimstansiyasidan boshlanib, Nukus qishlog'iga (taxminan 300 metr) va Sarimoy qishlog'iga (taxminan 4,3 kilometr) yaqin joylashgan va Navoiy viloyatidagi rejalashtirilgan Muruntov (qurilayotgan) nimstansiyasigacha cho'zilgan. (1-rasm). Milliy qonunchilikka muvofiq cheklov talablarini bajarish uchun 60 metrlik sanitariya-muhofaza zonasi (SMZ)<sup>1</sup> saqlanishi kerak (EHUL markaziy liniyasining har ikki tomonidan 30 m).



“O'MET” AJ loyihani xususiy investitsiyalar ko'magida ishlab chiqadi. “O'MET” AJ nomidan ochiq tenderdan so'ng loyihalash, qurish va ishga tushirish ishlarini Loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish (LXQ) pudratchisi amalga oshiradi.

EHULning asosiy komponentlari tayanchlar, poydevorlar va o'tkazgichlardir.

- Tayanchlar odatda osma, burchakli yoki chekka tayanchlar bo'lib, ular erkin turuvchi yoki tortqili, balandligi taxminan 30 dan 40 m gacha bo'lgan tayanchlar bo'lishi mumkin.
- Tayanchlarni o'rnatish uchun poydevor kerak; poydevorlar, geotexnik talablarga ko'ra, ikki metr chuqurlikda bo'lishi mumkin.
- O'tkazuvchilar - bu elektr tokini uzatuvchi har bir tayanch o'rtasida tortilgan liniyalar. Har bir tayanch orasidagi masofa oraliqdir; odatda oraliqlar 300 m dan 400 m gacha bo'ladi.

EHUL qurilish ishlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Sarimoy NS dagi yakuniy foydalanuvchining ishlari (alohida loyiha doirasida quriladigan yangi kengaytirilgan hududda).
- Muruntov NS dagi yakuniy foydalanuvchining ishlari — rejalashtirilgan NS uchastkasi chegarasida bo'lishi kutilmoqda (hozirda qurilmoqda);



---

<sup>1</sup> Servitut sifatida ham ta'riflanishi mumkin

- EHUL ostida 60 m servitutni o'rnatish (shu jumladan, tirikchilik manbalari uchun har qanday kompensatsiyani taqdim etish);
- Mavjud yo'lni yoki EHULga parallel ravishda o'tadigan mavjud yo'ldan EHUL servitutiga kirishni ta'minlash uchun mos keladigan mavjud yo'lni yoki yangi kirish yo'lini modernizatsiya qilish.

Mobilizatsiya va qurilish bosqichi 12-18 oy davom etadi, so'ngra 3 oylik sinovlar o'tkaziladi. Nimstansiyalardagi ishlar qisqaroq vaqt davomida bajariladi va EHUL ishga tushirilguniga qadar yakunlanadi. Qurilish 2024 yilning kuzi va 2025 yilning bahori oralig'ida amalga oshiriladi. Loyiha sikli 4 bosqichdan iborat: qurishdan oldingi, qurilish, ekspluatatsiya va ekspluatatsiyadan chiqarish. Qurilish 10-20 ishchidan iborat guruhlar tomonidan ketma-ket davom etmoqda. Asosiy ishlar - maydonni tozalash, transport vositalarining kirishi, qurilish ishlari, po'lat yetkazib berish, tayanchni qurish, o'tkazgichlarni tortish va ishga tushirish. Ishchilarning turar joyi Sarimoy yoki Muruntov NS yaqinidagi yoki unga yaqin aholi punktlari yoki Sarimoy, Nukusdagi vaqtinchalik mehnat lagerida bo'ladi. Hozirda qurilish uchun suv manbasi noma'lum, ammo yo'nalishga tutash aholi punktlaridan tortib olib kelish yoki yer osti suvlarini olish hozircha ko'zda tutilmagan. Materiallar va jihozlar eng yaqin temir yo'l bekatiga, so'ngra yuk mashinalari yordamida maydonga yetkaziladi. Qurilish bosqichida ishchi kuchi 200 kishidan oshmaydi va sezilarli darajada kamroq bo'lishi mumkin. Qurilish vaqtida mahalliy aholini ish bilan ta'minlash uchun cheklangan imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin. Foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish vaqtida EHUL "O'MET" AJ tomonidan boshqariladi. Texnik xizmat ko'rsatish ishlari vaqti-vaqti bilan va servitut ichida bo'ladi. Infratuzilmaning kutilayotgan xizmat muddati - 30-40 yil. Barcha infratuzilmani almashtirish yoki olib tashlash uchun ularning amal qilish muddati oxirida variantlar ko'rib chiqiladi.

1-jadval: Loyiha jadvali

<b>Ishlar</b>	<b>Sana</b>
Loyihani toifailashtirish	2023 yil avgust (tugallangan)
Ish hajmini va trassani aniqlash	2023 yil oktyabr (tugallangan)
EITB loyihasi bo'yicha maslahatlashuv	2023 yil dekabr (tugallangan)
EITB loyihasini taqdim etishni yakunlash	2024 yil fevral
YeTTB axborotni oshkor qilish 120 kunlik muddati	2024 yil martdan maygacha
EITBni yakunlash (jumladan, jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar va davom etayotgan tadqiqotlar)	2024 yil iyun-avgust
Moliyaviy yopilish	2024 yil 4-chorak (darhol imzolanganidan so'ng)

Safarbarlik-oldi ishlar (trassa koridorini yakunlash, tayanchlarni mikro-saiting ishlari, rejalashtirish va loyihalash)	Qish 2024 yil
Qurilish boshlanishi	2025 yil bahori
Qurilish tugashi	2026 yil bahori

## 2 Loyihaga ehtiyoj va muqobillar variantlar

### 2.1 Loyihaga ehtiyoj

O'zbekiston hukumati elektr ta'minotini oshirishni maqsad qilib qo'ygan va 2020-2030 yillar davomida elektr energiyasi bilan ta'minlashning bir qancha maqsad va yo'nalishlarini, jumladan, qayta tiklanadigan energetika loyihalarini jadal rivojlantirishni belgilab beruvchi 2030 yilgacha Energetika strategiyasini qabul qilgan.

2030 yilgacha Energetika sektori strategiyasi "qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni rivojlantirish va kengaytirish hamda uni yagona energiya tizimiga integratsiya qilish" (BDS18-237(F))

Yashil iqtisodiyotga o'tish "energetika va resurslar samaradorligini oshirish orqali energiya ishlab chiqarishda tozalikni oshirish va taqsimlashga" yordam beradi. (BDS15-196(F))

Loyihani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda PQ-459-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bo'lajak Loyiha haqida 9-ilovasining 27-bandida so'z yuritiladi<sup>2</sup>.

Loyiha mamlakatning janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy hududlari o'rtasida elektr ta'minoti barqarorligini mustahkamlaydi va qayta tiklanadigan energiya loyihalarini milliy tarmoqqa kengroq integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

### 2.2 Muqobil variantlar

Muqobil konsepsiyalar va trassa variantlari, jumladan, "hech narsa qilmaslik" varianti ko'rib chiqildi. Shimoli-g'arbda tarmoqni yanada mustahkamlash uchun muqobil strategik variant mavjud emasligi aniqlandi. S-M EHUL Shimoliy-G'arbiy mintaqani 500 kV tarmoqning qolgan qismiga bog'lashda asosiy rol o'ynaydi. S-M EHUL trassa koridorining o'zi EHULning boshlanish va oxirgi nuqtalari hamda Sarimoy va Muruntov o'rtasida o'tuvchi mavjud yo'l bilan belgilanadi. Servitutda va tog'-kon maydonlarida joylashgan bitta fermer xo'jaligi hududini kesib o'tmaslik uchun kichik marshrut variantlari qo'llanilgan.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6329448#-6330470>

EITB loyihasida tavsiflangan loyiha komponentlarini (tayanchlar, izolyatorlar) va tayanchlarni joylashtirish bo'yicha yakuniy qarorlar Loyihani amalga oshirish uchun tanlangan LXQ pudratchisi tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Ushbu EITBda LXQ spetsifikatsiyasiga kiritish uchun maxsus loyihalashtirish ta'sirlarini yumshatish choralarini aniqlangan. Bular EIBRda qayd etilgan va Loyihaning keyingi bosqichida amalga oshirish uchun LXQ shartnomasiga kiritiladi.

## 3 Baholashga yondashuv

### 3.1 Baholash asosi

Loyiha milliy me'yoriy-huquqiy baza va YeTTB 2019 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosati (EIS), qo'llab-quvvatlovchi Faoliyat yuritish talablari (FT), Jahon banki guruhining atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalari (Umumiy), sektor ko'rsatmalari (Uzatish liniyalari), xalqaro ekologik konvensiyalar, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) asosiy mehnat konvensiyalari va Ilg'or xalqaro amaliyot (IXA) talablariga muvofiq baholandi.

### 3.2 Baholash metodologiyasi


Milliy qonunchilikka ko'ra, Loyiha ekologik ta'sirni baholashni (ETB) talab qiladigan II toifaga kiradi. Loyihaning EITB atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik, mehnat va yerga oid O'zbekiston milliy qonunlari va qoidalarga muvofiq 1-diagrammadagi bosqichlar bo'yicha ishlab chiqilgan. Alohida ETB O'MET tomonidan amalga oshiriladi.

EITBda bevosita<sup>3</sup> va bilvosita<sup>4</sup> ta'sir doirasi maydonidagi (TD) potentsial E-I ta'siri baholandi. Ta'sirlarni baholashda boshlang'ich tadqiqotlar va ma'lumotlar yig'ish bilan belgilangan bashorat qilingan ta'sirlar **kattaligi** va reseptorlarning **sezgirliigi** (jismoniy, insoniy yoki biologik) ko'rib chiqildi.

Ta'sirning kattaligida quyidagilar hisobga olinadi:

- ta'sir turi va xususiyati (ijobiy/salbiy);
- qamrovi (masalan, mahalliy, mintaqaviy, global);
- davomiyligi (doimiy/vaqtinchalik);
- vaqt davri (darhol/kechiktirilgan);
- qaytariluvchanligi (qaytariladigan / qaytarilmaydigan);

1-diagramma: EITBni tayyorlash bosqichlari



<sup>3</sup> Bevosita ta'sir doirasi maydoni: maydonchanning joylashuvi, ish maydoni va qurilish va ekspluatatsiya ishlari davomida ta'sirga uchragan maydon (masalan, yo'l harakati tartibi) kabi loyihaning jismoniy ta'zir ko'rsatish hududini hisobga oladi.

<sup>4</sup> Bilvosita ta'sir doirasi maydoni: loyihaning bevosita nazorati ostida bo'lmagan faoliyat bilan birgalikda loyiha bilan bog'liq o'zgarishlarga uchrashi mumkin bo'lgan hududni o'z ichiga oladi (masalan, ichki migratsiya, natijada kelib chiqqan rivojlanish, tashrif buyuruvchilar oqimi, ishga kirish imkoniyati).

- yuzaga kelish ehtimoli (yo'q, kichik, o'rtacha, yuqori).

Reseptorlarning sezgirligini aniqlash uchun reseptorlarning o'zgarishlarni o'zlashtirishi yoki ta'sir bartaraf etilgandan so'ng o'zgarishlardan tiklanish qobiliyati kabi ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi.

Yumshatish va boshqarish choralari ta'sir ahamiyatini maqbul darajaga (qoldiq ahamiyat) kamaytirish uchun oldini olish, kamaytirish/minimallashtirish, yumshatish va kompensatsiya/qoplashdan iborat yumshatish ierarxiyasiga muvofiq belgilangan. EITBda aniqlangan ta'sirni yumshatish va boshqarish choralari ishlab chiqishning turli bosqichlarida yumshatish chora-tadbirlarini amalga oshirish asoslarini tavsiflovchi asosiy EIBRga (IV jild) kiritilgan. Barcha pudratchilar asosiy EIBR talablariga rioya qilish uchun o'zlarining tartib-qoidalariga ega ekanligini namoyish etishlari talab qilinadi. O'MET va Kreditorlar yoki ularning vakillari xavfning tabiatiga muvofiq asosiy EIBR talablariga muvofiq ishning muntazam auditlarini o'tkazadilar.

### 3.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish

EITB jarayonining muhim qismi mahalliy jamoa va boshqa manfaatdor tomonlar guruhlari (birgalikda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) bilan maslahatlashuv shaklida o'tkazildi. Manfaatdor tomonlar, ayniqsa bevosita ta'sirga uchragan jamoalar bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish yondashuvi qo'llanildi. Bu Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (MTHR) deb nomlangan loyihaning aloqa qilish rejasida bayon etilgan. Manfaatdor tomonlarning ishtiroki 2023 yil oktabr oyida maydonga ish hajmini aniqlash uchun tashrif buyurish bilan boshlandi va 2023 yil yanvar oyida EITB xulosalari loyihasi bo'yicha bir qator ommaviy uchrashuvlar o'tkazildi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jarayoni Loyihani qurilish davrida va zaruratga qarab ekspluatatsiya jarayonida davom etadi.

Loyiha doirasida turli manfaatdor tomonlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar va ommaviy yig'ilishlar o'tkazildi, ularda EITB natijalari 2024 yil 15-19-yanvar kunlari e'lon qilindi. Bo'lib o'tgan yig'ilishlar:

- Ayrim konchilik ishlari olib boriladigan maydonlarini kesib o'tmaslik masalasi bo'yicha Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan yuzma-yuz uchrashuvlar;
- Servitut bo'ylab fermer xo'jaliklari egalari va Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish davlat qo'mitasi (Nukus qishlog'i, Sarimoy qishlog'i, Uzunquduq qishlog'i) rahbarlari bilan yuzma-yuz uchrashuvlar;
- davlat organlariga (milliy, viloyat, shahar va tuman boshqarmalari/hokimliklariga) xatlar;
- Quyidagilar bilan uchrashuvlar:
  - Davlat organlariga xatlar (respublika, viloyat, shahar va tuman boshqarmalari/hokimliklar) – Xorazm, Tuproqqal'a, To'rtko'l, Buxoro, Peshku, Navoiy, Uchquduq, Kannimex, Tamdi;
  - Mintaqaviy sanoat korxonalarini (konchilik, temir yo'l), aholi yetakchilari;
  - Loyihadan ta'sirlangan aholi (LTA) (Nukus, Sarimoy, Uzunquduq);
  - yerdan foydalanuvchilar (chorvadorlar);

- Zaif guruhlar (ayollar, yoshlar va bolalar, qariyalar yoki nogironlar, savodsiz yoki yarim savodsiz shaxslar) bilan fokus-guruhlar;

Ko'tarilgan asosiy masalalar:

- ornitofaunani baholash va unga bo'lgan oqibatlarini yumshatish;
- yaqin atrofdagi boshqa infratuzilma ob'ektlari (suv quvurlari, gaz quvurlari) joylashgan tegishli sanitariya muhofaza zonalarini saqlash;
- ijaraga olingan qishloq xo'jaligi yerlari/yaylovlar yaqinida yoki bo'ylab EHULning yo'nalishi bilan bog'liq muammolar;
- qurilish muddati, byudjeti, chorva mollarini o'tlashiga potensial ta'siri haqida ma'lumot olish uchun so'rovlar; va
- ishga olish imkoniyatlari.

Loyiha bo'yicha shu kungacha amalga oshirilgan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarining to'liq ro'yxati EITBda (II jild) umumlashtirilgan va uni MTHRda (V jild) topish mumkin.


### 3.4 Shikoyatlar ko'rib chiqish mexanizmi

2-diagramma: Jamoa shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmidagi bosqichlar (ShKM)

Har qanday manfaatdor tomonlarda bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday tashvish, muammo yoki savol ("Shikoyatlar") loyihaga "Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi" (ShKM) orqali yetkazilishi mumkin. ShKM loyihaning barcha muammolarni tan olish, tekshirish va javob berish majburiyatini belgilaydi. ShKMdagi bosqichlar 2-diagrammada keltirilgan. Shikoyatlar quyidagi usullar orqali berilishi mumkin:

- Uchrashuvlar yoki maydonga tashriflar vaqtida to'g'ridan-to'g'ri loyiha xodimlariga.
- Telefon qo'ng'iroqlari orqali.
- Yozma shaklda (matnli xabarlar, elektron pochta orqali, mobil ilovalar, xatlar, yozma so'rovlar).

Shikoyat mexanizmi **ma'lumotlarning**, shu jumladan barcha murojaat etuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining **qat'iy maxfiyligini** ta'minlaydi. Barcha shikoyatlar **anonim tarzda topshirilishi mumkin**. Shikoyatchi shikoyatga taklif qilingan yechim/javobdan qoniqmaganda hollarda shikoyatni hal qilish uchun boshqa huquqiy choralar ko'rish huquqiga ega.



Quyida ShKMni amalga oshirish bosqichlarining tavsifi keltirilgan:

1-bosqich: Shikoyat har qanday aloqa vositasi orqali qabul qilinganidan so'ng, Shikoyatlar bo'yicha menejer barcha kelib tushgan tashvishlar/so'rovlar tekshirilishi va ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun shikoyatni shikoyatlar jurnaliga kiritadi.

2-bosqich: Shikoyat qabul qilingan va ro'yxatga olinganidan so'ng, shikoyatchi so'rovga va javobni olishning dastlabki vaqtiga qarab, tekshirish uchun taklif qilingan muddat ko'rsatilgan yozma xabarnoma oladi. Shikoyat shakli va jurnalida har bitta kelib tushgan shikoyatlar qayd etiladi.

3-bosqich: EITB bo'yicha maslahatchi guruhining ajratilgan a'zolari Loyihaning EITB bosqichida shikoyatlarni qabul qilish va monitoring qilish uchun javobgar bo'ladi. Shikoyat shakli aniqlangan manfaatdor tomonlarning joylashuvi, ma'qul til va muloqot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. Javoblar shikoyatchiga mos tilda, ya'ni o'zbek yoki rus tilida beriladi.

4-bosqich: Shikoyatlarni hal qilish to'g'risida shikoyatchiga yozma shaklda rasmiy ravishda xabar qilinadi. Agar shikoyatchi yozma javob ololmasa, shikoyatchi bilan telefon orqali bog'lanishadi va u shikoyat natijalari haqida xabardor qilinadi. Quyidagi jadvalda shikoyatlarga javob berish muddatlari ko'rsatilgan. Agar shikoyatchi javobdan mamnun bo'lmasa, u appelyasiya berishi mumkin. Bundan tashqari, shikoyatni ko'rib chiqish mexanizmi orqali yuborish shikoyatchiga milliy huquqiy tizim orqali murojaat qilishiga hech qanday to'sqinlik qilmaydi va agar shikoyatchi o'z shikoyatiga olgan javobidan qoniqmasa, u o'z xohishiga ko'ra, bunday yo'l tutishi mumkin.

Shikoyatlarni hal qilishda qo'llaniladigan yondashuvlar shikoyatlarning xususiyati, paydo bo'lish chastotasi va soniga bog'liq bo'ladi.



2-jadval: Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati

<b>Bosqich</b>	<b>Muddati</b>
Shikoyatni qabul qilish va ro'yxatga olish	Kelib tushgan kunidayoq
Shikoyatni qabul qilinganligi to'g'risida shikoyatchiga xabarnoma berish	Shikoyat topshirilganidan keyin ko'pi bilan uch kun
Qabul qilingan shikoyatni baholash/tekshirish	Shikoyat topshirilganidan keyin ko'pi bilan ikki hafta
Shikoyatchiga javob berish	Baholash tugaganidan keyin ko'pi bilan uch kun
Agar shikoyatchi ilgari berilgan javobdan qoniqmasa, shikoyatni qayta ko'rib chiqish	Shikoyatchi tomonidan norozilik to'g'risida xabar berilganidan keyin ko'pi bilan ikki hafta

Murakkab shikoyatlar yoki boshqa omillar tekshirish vaqtini uzaytirsam, shikoyatchiga bu kechikish haqida xabar beriladi, javob berish uchun yangilangan kutilayogan muddatlar jadvali va muntazam ravishda yangilangan ma'lumotlar taqdim etiladi.

## 4 Ekologik va ijtimoiy baholashning qisqacha mazmuni

### 4.1 Loyiha reseptorlari

EHUL ning servitut maydoni qurg'oqchil cho'l va dasht landshaftlarini qamrab oladi. Qizilqum cho'lga yaqinligi tufayli qurg'oqchilik yuqori darajada (2-rasmga qarang).

EHUL to'rtta viloyat va beshta tumandan o'tadi:

- Xorazm viloyati (Tuproqqal'a tumani);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi (To'rtko'l tumani);
- Buxoro viloyati (Peshku tumani); va
- Navoiy viloyati (Uchquduq va Tamdi tumanlari).

Uzunquduq qishlog'i havo liniyasiga eng yaqin joylashgan bo'lib, qishloqning eng yaqin uyi EHUL trassasidan 210 metr uzoqlikda joylashgan. Sarimoy va Nukus qishloqlari ham Sarimoy nimstansiyasi yaqinida joylashgan. Taklif etilayotgan trassa bo'ylab asfaltlanmagan yo'l o'tadi.

Uchta suv quvuri (ikkitasidan foydalaniladi va bittasi - qurilish jarayonida) EHUL ga parallel ravishda o'tadi, shuningdek, kengroq hududdagi chorvadorlarning suv bilan ta'minlanishi uchun butun suv quvurlari yo'nalishi bo'ylab davriy suv olish punktlari bo'lgan bir nechta suv nasos stansiyalari mavjud.



3-rasm: EHUL trassasi bo'ylab cho'l landshafti



4-rasm: Uchquduq qishlog'i




6-rasm: Tabiiy suv havzasi



5-rasm: EHULga parallel o'tgan shag'alli yo'l

7-rasm: Loyihaning joylashuvi va EHUL bo'ylab reseptorlari



Ish hajmini aniqlash bosqichidagi ish natijalariga asoslanib, EITBda silliq gekkoncha yashash muhitiga ta'sirni, servitudagi yashash muhitiga va sezgir turlarga ta'sirni, avifaunaga ekspluatasiya bosqichidagi ta'sirni (xususan, yo'rg'a tuvaloq, yirtqich hayvonlar va suv qushlariga tegishli), jismoniy ta'sirlar, masalan, shovqin, havo sifati, yer usti oqava suvlari va ijtimoiy ta'sirlar, masalan, servitudagi cho'ponlar va fermerlarning tirikchilik manbalari, ishchilar kirib keladigan oqimi, ta'minot zanjiri, jamoa salomatligi va xavfsizligi (shovqin, yo'l harakati va chang, EMM), ishga yollash va mehnat huquqlari va ishchilar uchun sanitariya-maishiy sharoitlarni baholashga e'tibor qaratildi.

## **4.2 Loyihaning potentsial ijobiy ta'siri**

Loyihaning qurilish bosqichida katta bo'lmagan miqdorda ish o'rinlarni yaratish, mahalliy xaridlar va mahalliy xarajatlarni oshishi mahalliy jamoalarning (loyihadan 15 km masofada joylashgan jamoalar) iqtisodiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Tuproqni tozalash, sement tayyorlash, poydevor qurish, ovqatlanish, haydovchilik va qo'riqlash ishlari bilan bog'liq malakasiz yoki yarim malakali vaqtinchalik ish o'rinlari yaratiladi. Mahalliy jamoalardan ishchilarni ishga joylashtirishni rag'batlantirish va ish boshlanishidan oldin tegishli ishga joylashish va xarid imkoniyatlari haqida xabar berish uchun mahalliy ishga qabul qilish rejasi tayyorlanadi. Ekspluatasiya bosqichida ishga joylashish imkoniyatlarining yaratilishi kutilmaydi.

## **4.3 Loyihaning potentsial salbiy ta'siri**

### **4.3.1 Yerni olish, majburiy ko'chish va iqtisodiy ko'chirish**

Davlat O'zbekistondagi barcha yerlarga egalik qiladi va uni davlat idoralari orqali boshqaradi, masalan, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (IJSRQ); davlat organlari yerdan foydalanish huquqini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ) orqali beradi. Loyiha servituti bo'ylab yerga bo'lgan huquqlarning egalari quyidagilardir:

- IJSRQ va MChJlar:
  - “Khorezm sheep-breeding cluster” MChJ (Tuproqqal'a tumanida),
  - “Jonkeldi” MChJ (Peshku tumanida), “Darxan-2019” MChJ (Tamdi tumanida),
  - “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Navoiyazot” AJning Tamdi tumanidagi yerlari.
  - “Uchquduq chorva klasteri” MChJ (Uchquduq tumanida),
  - To'rtko'l tumanidagi IJSRQ yerlari va ikkita “DILMUROD-CHORVA” va “OQ-DARBAND-CHORVA” fermer xo'jaligi;
- Uchquduq tumanidagi “Uchquduq zamin gulshani”, “Dilmurod sharif”, “Chorvador Rajab Narzulla” nomli uchta fermer xo'jaligi va
- To'rtko'l tumanidagi “DILMUROD-CHORVA” va “OQ-DARBAND-CHORVA” nomli ikkita fermer xo'jaligi.

Faqatgina EHUL tayanchini qurish maydoni uchun doimiy muddatga yer olinadi. Loyiha EHUL yoki kirish yo'llari uchun servitutni yaratish uchun hech qanday jismoniy ko'chirish kabi ta'sirga


(ya'ni, uy xo'jaliklarining ko'chishiga) olib kelmaydi. Liniya ishga tushgach, o'tlash va boshqa ishlar davom etishi mumkin. Nimstansiyalardagi ishlar butunlay mavjud nimstansiyaning maydoni doirasida amalga oshiriladi. Eksplyuatsiya bosqichida Loyihaning ta'sir maydoni faqat tayanch poydevorning qurilish maydoniga va servitutga kirish yo'llaridan iborat bo'ladi. Eksplyuatsiya bosqichida tirikchilik manbalari bilan bog'liq hech qanday muammo kutilmaydi.

Yangi loyihalashtirilgan 500 kV EHUL uchun EHULning har ikki tomonida eng chetdagi o'tkazgichdan 30 m masofada ajratilgan maydon mavjud bo'lib, unda hech qanday bino yoki inshootlarni joylashtirish mumkin emas; bu maydon servitutni tashkil qiladi. Loyiha servitut va har qanday doimiy va vaqtinchalik kirish yo'llari (qoplamasiz) uchun bu yer maydoni bo'yicha servitut huquqini olishi kerak. IJSRQ yerga egalik qilganligi sababli, O'MET AJ IJSRQ bilan servitut shartnomasini tuzadi.

Kadastr idoralari IJSRQD bilan maslahatlar o'tkazildi va taklif qilingan EHUL trassasi bo'ylab yerga egalik qiluvchilar va cho'ponlar bilan hamkorlik tadbirlari o'tkazildi. Ushbu maslahatlashuvlar natijasida yerni olish ta'sirini kamaytirish uchun EHUL trassasi o'zgartirildi. Bitta turar-joy inshooti EHULning muhofaza maydoni (60 m) ichida ekanligi aniqlandi va shuning uchun jismoniy ko'chish zaruratining oldini olish maqsadida EHUL trassasi ushbu mulk atrofida aylanib o'tadigan bo'ldi (8-rasm). Dastlabki EHUL trassasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan maslahatlashuvlar natijasida aniqlangan bir qator tog'-kon kompaniya maydonlaridan o'tar edi. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi ko'rsatmalariga binoan, trassa ushbu ikkita kompaniya maydonlarini chetlab o'tadigan bo'ldi (9-rasm).



8-rasm: S-M EHUL trassasini (ko'k rangda) ferma yaqinidagi o'zgartirish (sariq rangda).



9-rasm: S-M EHUL trassasini (ko'k rangda) rangli metal zonalaridan o'tmasligi uchun o'zgartirish (binafsha rangda).

Yer huquqiga ega bo'lgan shaxslarga yetkazilgan zararlarni hisoblash va qoplash O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, agar Loyiha qurilishi yoki ekspluatatsiyasi ularning yerlariga kirishini cheklasa, kompensatsiya olish huquqiga ega (jumladan, boy berilgan foyda). O'zbekistondagi yer to'g'risidagi Qonun ham mulkdorni/foydalanuvchini servitut huquqi ta'siridan himoya qiladi va servitut huquqi tufayli yerdan foydalanishni cheklamaydi, inshootlarni qurish bundan mustasno.

Yer olish va ko'chirish bo'yicha asosda (YeKA) O'zbekiston qonunchiligida qoplanmaydigan tirikchilik manbalarining potensial yo'qotishlarini baholadi va EHUL qurilish ishlari va ekspluatatsiyasi natijasida yer yoki daromad yo'qolishi masalasini hal qilish maqsadida, Loyiha ta'siriga uchragan odamlar (yer huquqiga ega bo'lganlar va yerdan foydalanuvchilar, masalan cho'ponlar) bilan maslahatlashgan holda o'quv kurslari kabi turmush tarzini tiklash bo'yicha chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Chora-tadbirlar turmush tarzini tiklash rejasiga (TTTR) kiritiladi; bu reja keyinchalik YeKAda ko'rsatilgan chora-tadbirlar asosida tayyorlanadi.

### **4.3.2 Ishchi kuchi kirib kelishi oqimi va jamoa salomatligi va xavfsizligi**

EHUL uchun Xavfsizlik ajratilgan maydon sifatida ham nomlanadigan Sanitariya-muhofaza zonasini (SMZ) tashkil etish O'zbekiston standarti 0350-17-sonli SanQvaN "O'zbekiston Respublikasining aholi punktlarida atmosfera havosini muhofaza qilishning sanitariya normalari va qoidalari" (2017) da nazarda tutilgan. Ushbu loyiha uchun eng tashqi simlarning har ikki tomonida 30 m SMZ EHULga perpendikulyar yo'nalishda ajratiladi. Qurilishdan so'ng SMZ ichida ish davom etishi mumkin bo'lsa-da, simlar yonida va ustunlar tepalarida (cheklash zonasi deb ataladi) qurilma va mexanizmlardan foydalanish bo'yicha maxsus cheklovlar qo'llaniladi. Bu cheklov ta'siri yerga bo'lgan huquq egalari, yerdan foydalanuvchilar va ehtimol cho'ponlarga tegishli bo'ladi. Loyiha doirasida yerga egalik huquqi egalari, yerdan foydalanuvchilar va cho'ponlar bilan EHUL ostida ishlash bo'yicha xabardorlikni oshirish tadbirlar o'tkaziladi.

Qurilish bosqichida mahalliy jamoalar uchun umumiy salomatlik va xavfsizlik xavflari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Ishchilar hududga kirib kelishi ishchilar va jamoa a'zolari o'rtasida gender zo'ravonlik (GZ) oshishiga olib kelishi mumkin;
- odamlar oqimi mahalliy infratuzilmaga (sog'liqni saqlash muassasalari va bozorlar) tanglikni keltirib chiqaradi;
- ishchilar va jamoa o'rtasida yuqumli kasalliklarning yuqishi xavfi;
- bir joyda bir nechta EHUL qurilganligi sababli ta'sirlar kuchayishi yoki ehtimoli osishi.

Qurilish vaqtida loyiha jihozlarini himoya qilish uchun xavfsizlik xodimlari tayinlanishi mumkin. Ular ko'pincha jamoa a'zolari va Loyiha o'rtasidagi birinchi aloqa qilish shaxsi bo'ladi; shuning uchun ular ziddiyat chiqarishi yoki ta'qib qilishi yoki ular uchun jamoa a'zolari tomonidan ziddiyatlarga uchrash yoki ta'qib qilinishi xavfi mavjud.

Pudratchi va O'MET mahalliy jamoa a'zolarini Loyihaning asosiy xavflari haqida xabardor qilish uchun xabardorlikni oshirish tadbirlarini amalga oshiradi. Ular ishchilar va xavfsizlik xodimlaridan ishchilarning "xulq-atvor kodeksi"ni imzolashlarini talab qiladilar. Loyiha qurilish va ekspluatatsiya bosqichi uchun xavfsizlik talablarini belgilaydigan xavfsizlik rejasini ishlab chiqadi va kerak bo'lganda, unga jamoa a'zolarini ish hududiga kirishidan yoki EHUL tayanchlariga chiqishidan to'sqinlik qiladigan panjara, xavfsizlik belgilari (mahalliy tillarda) va boshqa tegishli himoya choralarini kiritadi. Ishchilar mahalliy jamoalardan uzoqda joylashgan turar-joylar bilan ta'minlanadi. Loyihaning qurilishi yoki ekspluatatsiyasi natijasida mahalliy jamoa a'zolarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday ta'sir yoki tashvishlari haqida Loyihani xabardor qilishi mumkin bo'lgan Loyihaning shikoyat qilish mexanizmi mavjud bo'ladi.

#### 4.3.2.1 Elektromagnit maydonlar (EMM)

Aksariyat elektr quvvati sekundiga 50 yoki 60 sikl yoki gerts (Hz) da ishlaydi, bu "juda past chastota (JPCh)" deb ataladi. Qisqa muddatli ta'sirlar yuqori darajadagi (100  $\mu$ T dan yuqori) o'tkir ta'sirdan aniqlangan biologik ta'sirlarni o'z ichiga oladi, bu tan olingan biofizik mexanizmlar bilan izohlanadi. Loyihaning qurilish bosqichida EMM ta'siri yuzaga kelmaydi, chunki bu bosqichda elektr jihozlar quvvatlanmaydi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, EMM darajasi, 3-jadvalda keltirilganidek, EHULdan 30 m masofada maqbul darajaga tushadi. 60 m SMZ bilan doimiy xususiyatlar kuzatilmaydi; shuning uchun barcha xususiyatlar ta'sir qilish zonasidan ancha uzoqda kuzatiladi.

3-jadval: Markaziy liniyadan turli masofalarda 500 kV EHULdan magnit va elektr maydoni

<b>500 kV</b>	<b>Magnit maydon (mikrotelas) uT</b>	<b>elektr maydoni (1metrga voltlar)</b>
Maksimal maydon (liniya ostida) (Ionlashtiruvchi bo'lmagan nurlanishdan himoyalaniish ta'siri bo'yicha xalqaro komissiya (ICNIRP) ko'rsatmalari qiymatlari)	100	11,000
Oddiy maydon (liniya ostida)	5-10	3000-5000
Oddiy maydon (25 m yon tomonga)	1-2	200-500

Cho'ponlar va fermerlar o'z hayvonlarini o'tlashda davom etishlari va liniya ostida ekin ekishlari mumkin; biroq, bular uzoq vaqt davomida<sup>5</sup> EHULning bevosita ostida bo'lmaydi deb hisoblanadi. Umuman olganda, ICNIRP 1998 ko'rsatmalaridan yuqori bo'lgan qisqa muddatli EMMning sezilarli darajada ta'sirida qolish ehtimoli minimaldir. Bundan tashqari, EMMlarning turli hayvonlarga mumkin bo'lgan ta'siri bir necha bor o'rganilgan va EMMlarning aniqlanadigan ta'siri topilmagan. EMMlar ekinlar, yaylov o'tlari yoki mahalliy floraga aniqlanadigan ta'sir ko'rsatmaganligi haqida umumiy kelishuv mavjud. JSST ishchi guruhi JPCh magnit maydonining ta'siri va ushbu sog'liqqa ta'sirlar o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi ilmiy dalillar barcha holatlarda zaif degan xulosaga keldi. Ba'zi hollarda (masalan, yurak-qon tomir kasalliklari yoki

<sup>5</sup> Uzoq vaqt deganda, odatda, doimiy yaylov/qo'ralarning doimiy ishlatilishi tushuniladi.

ko'krak bezi saratoni), dalillarga ko'ra, bu maydonlar bu kasalliklarga sabab bo'lmaydi<sup>6</sup>. Fermerlarning hududda ekin ekish va o'tlashda davom etishini ta'minlash, shuningdek, cheklash zonalarini (yuqorida aytib o'tilgan) hisobga olgan holda, havo liniyalari ostida ishlashga xavfsiz qaytishini ta'minlash uchun EHULning EMMning haqiqiy xavfi haqida xabardorlikni oshirish maqsadida mahalliy fermerlar va cho'ponlar bilan tushuntirish ishlari rejalashtirilgan.

### 4.3.3 Biologik xilma-xillik

#### 4.3.3.1 Ta'sir haqida umumiy ma'lumot

Biologik xilma-xillikning asosiy xususiyatlari va ta'sirini baholashda sertifikatlangan milliy biologik ekspertlar tomonidan ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq o'tkazilgan biologik xilma-xillik bo'yicha bazaviy dala tadqiqotlari to'plami bilan to'ldirilgan texnik adabiyotlar va kompyuterda yoki onlayn resurslarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni keng ko'lamli o'rganishlardan foydalanildi. Ushbu dala tadqiqotlari to'plami qushlar uchun "Kuzatuv nuqtasi" (KN) tadqiqotlarini o'z ichiga oladi (tadqiqotning umumiy davomiyligi butun liniya bo'ylab 15 ta nuqta, hamda bahor va kuzgi migratsiya mavsumlari o'rtasida teng taqsimlangan 600 soatni tashkil etadi); yo'rg'a tuvaloq tadqiqotlari (milliy ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot protokoli bo'yicha o'tkazildi, EHULdagi barcha potentsial ko'payish muhitini qamrab olgan 15 nuqtada mayl bildirish mavsumining eng yuqori nuqtasida [aprel o'rtalari] eng yuqori soatlarda) o'tkazildi; Pustinoye ko'lidagi suv qushlari tadqiqoti (migratsiya mavsumida to'rt kun davomida o'tkazildi), sudralib yuruvchilar tadqiqoti (oktabrda - 2 kun), botanika/yashash muhiti tadqiqoti (oktabrda - kun) va sutemizuvchilarni o'rganish (oktabrda - 4 kunlik transekt tadqiqotlari, shuningdek, kuzda 12 joyda bir oy doimiy suratga olish).

Ushbu ma'lumotlar IBAT hisoboti bilan birga YeTTB FT6 va XMK FS 6 ko'rsatmalari va maxsus mezonlariga (shuningdek, Muhim yashash muhiti (MYaM) xususiyatlaridan tashqari YeTTB FT6 bo'yicha Bioxilma-xillikning ustuvor ob'ektlari [BUO] identifikatsiyasini o'z ichiga olgan holda) MYaMni baholashni amalga oshirish uchun ishlatilgan. Ushbu baholashda Loyiha hech qanday reseptorlar uchun MYaMni qo'zg'atmaydi degan xulosaga kelindi va 24 ta BUO, shu jumladan uchta o'simlik turi, ikkita sudraluvchilar turi, 14 qush turi, uchta sutemizuvchilar turi va qushlarning ikkita multitakson guruhi aniqlandi.

Loyiha hududi xalqaro miqyosda tan olingan Asosiy biologik xilma-xillik hududlari (ABH) yoki Qonun bilan muhofaza qilinadigan hududlar (QMQH) bilan kesishmaydi. Uning biologik xilma-xillik qadriyatlariga ta'sir qilishi ehtimoli juda past bo'lib, r eng yaqin ABHdan kamida 10 km va eng yaqin QMQH dan kamida 3 km masofada joylashgan.

EHUL asosan Qizilqum cho'lining qurg'oqchil yashash joylaridan o'tadi, sharqiy yarmida yanada barqaror tuproqli cho'l senozi va tog'lar, g'arbiy yarmida esa qumli cho'l bilan bog'liq bo'lgan

---

<sup>6</sup> NRPB, 2004 y. Elektromagnit maydonlarning (0-300 GHz) ta'sirini cheklash zarurati haqidagi ilmiy dalillar tahlili. NRPB hujjatlari: 15-jild, № 3, 2004 yil.



senozlar mavjud. Bunday senozlar, odatda, juda siyrak o'simliklar va past xilma-xillikka ega, ammo ular cho'l senozining yuqori ixtisoslashgan organizmlari to'plamini o'z ichiga olib, tog' etagi va qattiq qumli hududlar qumli cho'l hududlariga qaraganda yuqori bioxilma-xillikka ega.

EHUL suvda suzuvchi qushlar va boshqa suv qushlari kontsentratsiyasini o'z ichiga olgan suv havzalariga yaqin joylashgan ikkita hudud mavjud, ayniqsa migratsiya mavsumida va bu zonalarda EHUL bilan to'qnashuvga moyil bo'lgan BUO hisoblanuvchi qushlarning 3 tasi uchun to'qnashuv xavfi mavjud (qizilbosh, cho'l suv targ'og'i, boshqa ko'chib yuruvchi suv qushlari turlari). Pustinnoye ko'li EHUL dan 600 m uzoqlikda, Uzunquduq kichik aholi punktidan taxminan 5 km g'arbda, EHULning o'rtasida joylashgan. Bu kichik ko'l Qushlarning muhim hududi (QMH, ABH turi) va QMQH sifatida ham tan olinmagan. Shunga qaramay, unda suv qushlarining nisbatan kichik, mavsumiy kontsentratsiyasi kuzatiladi, va qushlar EHUL bilan to'qnashuv xavfiga uchrashi mumkin. Ushbu xavf, ilg'or xalqaro amaliyotidagi mos ravishda loyihalashtirilgan va masofalarga o'rnatilgan, EHULning 7 km uzunlikdagi qismida, shu jumladan ushbu ko'ldan 3 km masofadagi barcha hududlarda Qushlarning parvozini o'zgartiruvchi qurilmalarni (QPO'Q) o'rnatish orqali yumshatiladi. EHULning g'arbiy chekkasida "Sarimoy" nimstansiyasiga ulanadi. EHUL Amudaryo sohil yo'lagi bilan bog'langan botqoqlik/suv havzalari majmualaridan 2 km masofada joylashgan. Bu majmualarda suvda suzuvchi va boshqa suv qushlarining mavsumiy konsentratsiyasi ham kuzatiladi. Hudud bunday qushlar uchun muhim migratsiya koridori bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ular liniyaning ushbu qismida EHUL bilan to'qnashuv xavfiga uchrashi mumkin. Bunday xavf liniyaning eng g'arbiy 5 km qismida QPO'Q ni o'rnatish orqali yumshatiladi. To'qnashuvning qoldiq ta'siri bir BUO suv qushlarining turi uchun mo'tadil, bir BUO suv qushlarining turi va ko'p turdagi BUX suv qushlari guruhi uchun kichik deb tasniflangan.

EHUL ning sharqiy yarmining ko'p qismi (barqaror tuproqli cho'l va tog' etagidagi yashash muhiti) yo'rg'a tug'anoq (*Chlamydotis macqueeni*, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi klassifikatsiyasi bo'yicha - zaif, O'zbekiston klassifikatsiyasi bo'yicha - zaif) ning potentsial ko'payish muhiti sifatida aniqlangan. Ushbu tur Loyiha uchun juda sezgir biologik xilma-xillik reseptori hisoblanadi, chunki EHUL bilan to'qnashuvlar ushbu turning saqlanib qolishi uchun asosiy antropogen tahdid hisoblanadi va u shuningdek, daraxtsiz yashash muhitida baland antropogen inshootlarni o'rnatishdan kelib chiqadigan siljish ta'siriga ham sezgir bo'lishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Ko'payish mavsumining eng yuqori cho'qqisida barcha potentsial ko'payish joylarida o'tkazilgan ushbu tur uchun ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar natijasida ushbu turning faqat bitta ko'rinishi qayd etilgan - liniyaning taxminan 4 km shimolda ikkita erkak mayl bildirish vaqtida. Shu asosda, Loyiha hududida ushbu turning ko'payuvchi populyatsiyasining zichligi juda past degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu turga ta'sir faqat asosiy ko'payish mavsumidan tashqarida (aprel-may) bu hududda qurilish ishlarini cheklash orqali yumshatiladi va ko'chish va to'qnashuvning qoldiq ta'siri bu tur uchun "kichik" deb tasniflanadi.

Umuman olganda, to'qnashuv ta'siriga moyil bo'lmasa-da, loyiha hududida kalxatlar, burgutlar va boshqa yirtqich hayvonlarning keng to'plami uchraydi va bu turlarning nisbatan katta o'lchamlari bilan birgalikda elektr uzatish liniyalari va elektr uzatish liniyalarining tayanch tuzilmalarga o'tirishga moyilligi, agar bu qushlar bir vaqtning o'zida ikkita turli elektrlashtirilgan qism bilan

yoki bitta elektrlashtirilgan qism va bitta tuproqli qism bilan aloqa qilsa, bunday turlar elektr uzatish liniyalarida elektr toki urishi xavfiga uchraydi. O'n bitta alohida tur, shuningdek, ushbu toifadagi bitta ko'p turli qushlar guruhi Loyiha uchun BUO sifatida tasniflangan va dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday turlarning keng to'plami Loyiha hududida joylashgan bo'lib, ularning barchasi nisbatan past zichlikda va keng tarqalgan va EHUL umuman olganda bu toifadagi ko'pgina turlarning migrasiya yo'llariga perpendikulyar joylashgan. Bahor va kuzgi migrasiya davrida o'tkazilgan intensiv KN tadqiqotlari bunday turlarning kuzatuvlarida past zichlik va fazoviy taqsimotlarning shakllanishining yo'qligi EHULda hech qanday konsentriyalangan migratsiya yo'laklari yoki bunday turlar uchun "tor bo'yin" nuqtalari yo'qligi yoki EHUL ularni kesib o'tmasligini ko'rsatadi. Bu ta'sir butun EHUL bo'ylab ustunlar uchun "yirtqichlar uchun xavfsiz" konstruksiyalarni tanlash orqali yumshatiladi va elektr toki urushining qoldiq ta'siri 9 turdagi BUO qushlari uchun o'rtacha, ikkita BUO qushlari uchun kichik va ko'p turdagi qushlar uchun neytral deb tasniflanadi. To'qnashuv yoki elektr toki urishi natijasida qushlarning nobud bo'lishi ekspluatasiya davomida nazorat qilinadi. Ushbu monitoring barcha potentsial ta'sirlangan qush turlarini qamrab oladi. Monitoring natijalari bo'yicha protokol ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiqlashtiriladi, hamda moslashuvchan boshqaruv asosi bilan birga tayorlanadi. Ushbu tizim "umumiy yo'qotishlarning oldini olish" chegarasidan yuqori bo'lgan BUOlarning har qanday o'limi qo'shimcha yumshatish bilan qoplanishini ta'minlashga qaratilgan.

Yuqorida tavsiflangan qushlarga havodan ta'sir qilishdan tashqari, Loyiha yerdagi biologik xilmaxillik reseptorlari to'plamiga, shu jumladan uchta o'simlik turiga, ikkita sudralib yuruvchilar turiga va BUO sifatida tasniflangan uchta sutemizuvchilar turiga ta'sir qilishi mumkin. Bunday ta'sirlar yashash muhitini yo'qotish/ko'chirish, buzilish va/yoki to'g'ridan-to'g'ri o'limni o'z ichiga olishi mumkin va odatda Loyihaning qurilish va foydalanishdan chiqarish bosqichlari bilan cheklanadi va Loyihaning doimiy infratuzilmasini (tayanch tayanch asoslarini) shuningdek, qurilish va foydalanishdan chiqarish vaqtida vaqtinchalik buziladigan joylar (masalan, yotqizish joylari) o'z ichiga olgan loyihaning tuproq/o'simlik qoplaminig hududi doirasida. Bunday turlarga qoldiq ta'sirlar neytraldan kichikgacha bo'ladi va quyidagi chora-tadbirlar majmui bilan yumshatiladi:

- Qurilishdan oldin sezgir o'simliklarni o'rganish (*Acanthophyllum cyrtostegium*, *Tulipa lehmanniana*, *Lepidum subcordatum*, O'zbekiston qizil Kitobining 1 yoki 2-toifali boshqa turlari), shu jumladan, qurilish bosqichida urug'larni yig'ish va qayta ekish dasturi;
- Qurilishdan oldin monitoring va silliq gekkoncha uchun amalga oshirilgan ko'chirish tartibi, shu jumladan bevosita qurilish boshlanishidan eng yaqin yashash joylariga ko'chirishdan oldin populyasiyani o'rganish talabi;
- Qurilishdan oldin quruqlikdagi hayvonlarni o'rganish va qutqarish/ko'chirish;
- Loyiha sabab bo'lgan barcha doimiy yashash muhitini yo'qotishning o'rnini qoplash uchun maydon tashqarisida o'simliklarni tiklash/reabilitasiya qilish. Bunda BUO sifatida belgilangan va shuning uchun YeTTB FT6 bo'yicha "umumiy yo'qotishlarning oldini olish" ta'sirini yumshatish standartiga to'g'ri keladigan ba'zi turlar butun loyiha hududida sodir bo'lishini hisobga olish, masalan, Markaziy Osiyo toshbaqasi (shuningdek, EIBRga qarang);

- Bevosita ta'sir hududida odamlar, og'ir texnikalar, jihozlar saqlanishi yoki har qanday transport vositalarining silliq gekkonchani yashash muhiti bo'lgan taqirlarga kirishi/bezovta qilishi uchun taqirlar atrofida vaqtinchalik to'sqinlar o'rnatish;
- Qurilish davrida transport, chorva mollari va odamlar kirmasligi kerak bo'lgan hududlarda vaqtinchalik yopiq zonalarni yaratish; qazish ishlari davomida silliq gekkoncha topilganida, bu zonalardan uni chiqarish mumkin bo'ladi;
- Qurilish bosqichidagi ta'sirni yumshatish choralariga rioya etilishini ta'minlash va zarurat tug'ilganda qazish ishlari davomida ish joylarida har kuni qidirish ishlari va hayvonlarni ochiq xandaqlardan qutqarish maqsadida biologik xilma-xillik monitoringini olib boruvchi hodim joylarda ishlaydi.

#### **4.3.4 Qurilish ta'sirlari**

##### *4.3.4.1 Chang, shovqin, yo'l harakati va transport*

Havo liniyalari trassasi asosan antropogen chiqindilar manbalari bo'lgan, asosan, aholi yashamaydigan cho'l landshaftlaridan o'tadi. Bazaviy shovqin va havo sifatining o'lchovlari shovqin va havo sifatiga asosan tabiiy shovqin manbalari ta'sir qilishini tasdiqladi, ya'ni havoning yaxshi sifati va past bazaviy shovqin darajasi. Liniyaning asosiy nuqtalarida havo sifati va shovqin monitoring natijalari buni tasdiqladi. Servitutda reseptorlar umuman yo'q, lekin reseptorlar (ayniqsa, suv nasos stansiyalari, suv nasoslari va cho'ponlar lagerlari) aniqlangan joylarda ushbu ta'sirlarni minimallashtirish uchun ishlar va reseptorlar o'rtasida 150 metrlik sanitariya-muhofaza zonasi saqlangan. Barqaror yerni tozalash amaliyoti va rehabilitatsiya va tiklash tadbirlari chang hosil bo'lishini minimallashtirish uchun yerning buzilgan maydonlarini imkon qadar tezroq tiklash/ rehabilitatsiyani ta'minlaydi. Bundan tashqari, havo liniyalari ketma-ket qurilishi shuni anglatadiki, trassa bo'ylab ta'sirlar qisqa muddatli, vaqti-vaqti bilan va faqatgina yo'lning o'ng tomonida kuzatiladi, aksariyat ishlar tayanch joylarida va kunduzi yorug'lik vaqtida amalga oshiriladi. Shovqin va changning ta'siri past deb hisoblanadi.

Bundan tashqari, EHULga tutashgan bir qatorli shag'alli yo'lda ham chang, ham shovqin hosil qiluvchi va harakat hajmini oshiruvchi yo'l harakati hajmining miqdori oshadi. Yo'l harakatining oshishi ishchilar va jamoa a'zolariga ta'sir qilishi mumkin. Qurilish bosqichidagi yo'l harakatining ta'siri vaqtinchalik bo'lishi mumkin, va faqat qurilish bosqichida davom etadi. Ushbu yo'lda transport hajmi pastligini hisobga olsak, ta'sirlar ahamiyatsiz bo'lishi kutilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida yo'l holati yaxshilanishi kutilmoqda. Eng muhim nuqta Uzuchuduq mahallasi bo'lib, qurilish transporti uchun transport yo'nalishlarini Uzuchuduq mahalla fuqarolar yig'ini bo'ylab harakatlanishni minimallashtiradigan tarzda tashkil etish taklif etilmoqda. Bu hudud orqali transport vositalarining o'tmasligi uchun qurilish maydonchalariga ma'lum nuqtalardan (Sarimoy yoki Murantov) texnikaning kirib kelishi va mos ravishda sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarda ishlash imkonini beruvchi yo'nalishlardan foydalanish taklif etilmoqda. Bundan tashqari, yetkazib berish muddati, tezlik chegaralari, belgilar, saqlash joylari va dam olish joylari uchun IXA aniqlanadi. Mavjud infratuzilmaga yetkazilgan har qanday zarar Loyiha tomonidan qoplanadi va odamlarning yo'llardagi yo'l harakati xavfi to'g'risidagi bilimlarini yaxshilash bo'yicha jamoat xavfsizligi kampaniyasi yo'lga qo'yiladi.

#### 4.3.4.2 *Tuproq eroziyasi*

EHUL trassasi bo'ylab tuproqlar asosan qattiq va yarim qo'zg'almas qumlardan iborat bo'lib, buzilganda eroziyaga sezgirligi yuqori. Turg'un va yarim qo'zg'almas qumlarning o'simlik qoplami ularning tuzilishini saqlab qolishda asosiy omil hisoblanadi. Agar tuproq buzilgan yoki siqilgan bo'lsa, bu o'simlik qoplaminin yo'qolishiga va "sudraluvchan qumlar" deb nomlanuvchi hodisaga olib kelishi mumkin. Tuproq sharoitlari (organik moddalar va azot miqdori past) tufayli tabiiy o'simliklarni qayta tiklanishi kutilmaydi va shu sababli ta'sirning potensial kattaligi o'rtacha deb hisoblanadi. Olingan tuproq namunalari shuni ko'rsatdiki, liniyaning sharqiy qismidagi ba'zi tuproqlarda og'ir metallar miqdori yuqori bo'lib, bu kon qazish joylariga yaqinlik bilan bog'liq. Shuningdek, tuproqning ifloslanishi va ishchilarning sog'lig'ining yomonlashishi xavfi mavjud, ayniqsa, poydevor qazish paytida tuproqlarda og'ir metallarning tabiiy ravishda oshgan darajasi tufayli. Qurilish spesifikatsiyasi tayanchlar va tortish nuqtalar o'rtasidagi yashash muhitiga ta'sir qilmaslik uchun tortilgan girlyanda texnikasini talab qiladi. Maydonchani tozalash rejasi tuproqni olib tashlashni minimallashtirish, siqilish ta'sirini kamaytirish uchun avtomobil harakatini cheklash va siqilish ta'siriga uchragan har qanday hudud uchun ta'sirlangan hududni ishlar tugallangandan tezroq dastlabki holatiga qaytarish uchun siqilgan maydonni rehabilitatsiya qilish talabini belgilaydi. Buning uchun tuproqning yuqori qatlamini shamollatish, tuproqning yuqori qatlamini boyitish yoki tanlangan turlar va butalarni qayta tiklash talab qilinishi mumkin. IXA (xavfni baholashni o'z ichiga olgan holda) ifloslantiruvchi moddalarning yerga tashlanishini minimallashtiradi. Barcha ishchilar tuproq ishlari uchun tegishli shaxsiy himoya vositalarini (ShHV) kiyishlari kerak.

#### 4.3.4.3 *Suvdan foydalanish va suv sifati*

Suv sifatiga potensial xavfni kamaytirish uchun tayanch ishchi jabhalarini servitut yaqinidagi yer usti suvlari ob'ektlaridan kamida 150 m masofada ehtiyotkorlik bilan joylashtirishga rioya qilinadi. Qurilish ishlari uchun nisbatan past hajmdagi suv talab qilinadi va ekspluatatsiya bosqichida suv talab qilinmaydi. Suvdan asosan tegishli lisenziya bo'yicha ob'ektlardan tashqarida sement tayorlash jarayonida foydalaniladi. Qurilish ishlari uchun yer osti suvlari yoki boshqa suv manbalaridan foydalanilmaydi. Ichimlik suvi har bir ish jabhasiga har kuni tankerda olib boriladi. Yer osti suvlari va yaqin atrofdagi yer usti suvlari ob'ektlarining ifloslanishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar: kimyoviy moddalar, yoqilg'i va moylarni tegishli ravishda saqlash; yonilg'i quyish maydondan tashqarida amalga oshiriladi; ish joylaridan suv oqimining ko'payishini minimallashtirish; ish jabhalarida sement yuvilmaydi; va ifloslangan suv yoki potensial ifloslangan suvni oldindan tozalashsiz yerga to'g'ridan-to'g'ri oqizilmaydi. Qurilish bosqichida suvdan foydalanish IXAga amal qilgan holda butun qurilish bosqichida monitoring qilinadi.

#### 4.3.4.4 *Ifloslanishning oldini olish va resurslarni boshqarish*

Umuman olganda, loyihada chiqindilar kam va odatda xavfli bo'lmagan va xavfi past darajali chiqindilar (masalan, moylar, bo'yoqlar, erituvchilar) hosil bo'ladi. Xavfli chiqindilarni noto'g'ri qayta ishlash, tashish va yo'q qilish quruqlikka, havoga va yer osti suvlariga nazoratsiz tashlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa qabul qiluvchi muhitning buzilishi va ifloslanishiga olib keladi. Mahalliy hududda xavfli bo'lmagan yoki qurilish chiqindilarini yo'q qilish inshootlarining

mavjudligi yetarli darajada. Xavfli chiqindilarni mahalliy darajada utilizatsiya qilish imkoniyati kamroq, bu esa subpudratchilar bilan tuzilgan shartnoma shartlarida hisobga olinishi kerak. Ish jabhasida chiqindilarni qayta ishlash va saqlash rejalarini belgilash hamda milliy qonunlar, standartlar va IXAga muvofiq tegishli poligonga tashish va utilizatsiya qilishni markazlashtirilgan tarzda muvofiqlashtirish uchun Loyihaning har bir bosqichi uchun maydoncha chiqindilarini boshqarish rejasi talab qilinadi. Agar mavjud bo'lsa, chiqindilarni qayta ishlash yoki chiqindilarni qayta ishlatish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Qurilish chiqindilari uchun haftalik va oylik chiqindi hosil bo'lish hajmlari bo'yicha (chiqindini yo'q qilish varianti bo'yicha belgilangan chiqindilar oqimi bo'yicha ajratilgan) hisobot tuziladi.

#### **4.3.5 Madaniy meros**

UNESCOning Butunjahon merosi milliy ma'lumotlar bazasi, mahalliy yerdan foydalanuvchilar (ayniqsa, cho'ponlar) va O'zbekiston Madaniy meros agentligi (MMA) bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi. Servitut yoki undan kengroq hududda (Loyihadan 5 km gacha bo'lgan masofada) muhofaza qilinadigan yoki aniqlangan moddiy yoki nomoddiy madaniy meros mavjudligi aniqlanmagan. MMA tomonidan har qanday ta'sirlarni oldini olish uchun Loyihadagi qazish ishlari uchun arxeologik nazorat talab sifatida belgilangan. EHULning ayrim qismlari bo'ylab trassa bir necha qadimiy daryo o'zanlari va irmoqlari, pastliklar va kichik tog' massivlari bilan kesishadi. Bu hududlarda tosh davridan to oxirgi o'rta asrlarga mansub bo'lgan yodgorliklar ham bo'lishi mumkin. Ushbu hududlarda Arxeologiya instituti tomonidan qurilishdan oldingi bosqichda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi talab qilinadi.

#### **4.3.6 Iqlim bilan bog'liq xavflar va barqarorlik**

Loyihaning kutilayotgan muddatini hisobga olgan holda, iqlim bilan bog'liq bo'lgan infratuzilma va ishchilarning sog'lig'iga fizik xavflar ustunlik qiladi. Qisqa, o'rta va uzoq muddatda iqlim xavfini skrining tadqiqotida tez-tez sodir bo'ladigan bo'ronlar (chang bo'ronlari), ekstremal yomg'ir hodisalari va yoz oylarida uzoq muddatli ekstremal issiqlik potentsialining ortib borayotgan tendentsiyalarini prognoz qilindi, chunki iqlim o'zgarishining asosiy ta'siri boshqarilishi kerak. Shamol tezligining oshishi o'tkazgichlarga zarar yetkazishi, issiqlik konveksiyasini oshirishi va ishchilarning sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin (chang bo'ronlari). Haroratning ko'tarilishi texnik muammolarga olib kelishi va ishchilarning sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin, bu esa issiqlik bilan bog'liq kasalliklarning ko'proq tarqalishiga yoki jismoniy ish vaqtlarida sezilarli cheklovlarga olib keladi.

Bundan tashqari, haddan tashqari yog'ingarchilik hodisalari natijasida shunday tuproq sharoitlarini yaratishi mumkinki, agar shu masala hal etilmasa, tayanch poydevori va poydevor bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Iqlimga chidamli loyihalashtirish tanlovlari va favqulodda vaziyatlarga javob berishni rejalashtirish ushbu ta'sirlarni boshqarish uchun muhim hisoblanadi. Loyihalashtirish bo'yicha tavsiyalarda 2085 yilgacha bo'lgan iqlim prognozlari va yuqori loyihalashtirish standartlari (kuchli shamollar, yuqori haroratlar) uchun tuzilmalarni/poydevorlarni mustahkamlash zarurati bor-yo'qligini ko'rib chiqiladi. Favqulodda vaziyatlarga tayyorlanish rejaları chang bo'ronlariga qarshi evakuatsiya/boshpana, harorat jismoniy kuch ishlatish uchun xavfsiz chegaralardan (~35 °C) oshib ketganda ishni to'xtatish kabi

cheklovlarni, uzoqroq dam olish vaqtlarini va yetarli ichimlik suv bilan ta'minlash masalarini o'z ichiga oladi. Pudratchilar doimiy ob-havo monitoringi orqali shamol va haddan tashqari issiqlik hodisalari haqida erta ogohlantirish tizimini yaratishi va ishchilarga ushbu sharoitlarda ishlash bo'yicha ularning huquqlari haqida tushuntirish tadbirlarini o'tkazishi kerak.

## **5 Loyiha ta'sirlarni samarali boshqarish va monitoringini qanday ta'minlaydi?**

EITBning bir qismi sifatida asosiy Ekologik va ijtimoiy boshqaruvning rejasi (EIBR) tayyorlandi (EITB ning IV jildi). EIBRda ta'sirni baholash jarayoni va IXAdan kelib chiqadigan loyihaga xos ta'sirni kamaytirish choralarini belgilangan. "O'MET" AJ yoki LXQ Pudratchisi EITB talablarini amalga oshiradi. Alohida Qurilish bosqichi uchun EIBR va Ekspluatatsiya bosqichi uchun EIBR ham tayyorlanadi.

"O'MET" AJ ishlab chiqish va qurilish ishlarini nazorat qilish uchun Loyihani amalga oshirish guruhini (LAOG) tuzadi. Loyiha ishga tushirilgach, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish ishlari (ETXK) va har qanday ekspluatatsiya bosqichidagi ekologik va ijtimoiy talablari uchun javobgarlik bevosita "OzMET" AJning ekspluatatsiya guruhiga o'tkaziladi.

LXQ pudratchisidan Loyihani ishlab chiqish va qurilish ishlarini nazorat qilish uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini (EIBT) joriy etish talab qilinadi. EIBT siyosatlarni, baholash hujjatlarini, Loyihaga oid boshqaruv rejalarini, chiqindilarni boshqarish, mehnatni boshqarish, turar-joy, bandlik, xaridlar, biologik xilma-xillik bo'yicha asosiy quyi rejalarini o'z ichiga oladi. EIBT tizimi ISO14001Atrof-muhitni boshqarish talablariga mos kelishi shart. Loyiha rejalarining asosini Loyihaning asosiy qadriyatlarini va tamoyillarini belgilab beruvchi Loyiha siyosati tashkil etadi.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik xavflari LXQ pudratchisi tomonidan o'rnatiladigan va ISO 45001 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish standartiga muvofiqlashtirilgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi (MMXBT) asosida boshqariladi. Asosiy e'tibor baxtsiz hodisalar va favqulodda vaziyatlarni boshqarishni beriladi. Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va harakat qilish rejasi (FVTHR) tayyorlanadi va unda, xususan, tibbiy muassasalardan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqiladi.

Vaqtinchalik qurilish ishchilarini joylashtirish lagerlarida ishchilar kasallik xavfiga duchor bo'lishi va ularning sanitar-maishiy sharoitlari me'yordan past bo'lishi mumkin. Ishchilarni mahalliy jamoalardan uzoqda joylashtirish va barcha ish jabhalarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish muassasalari bo'lishini ko'zda tutuvchi maxsus turar joyni boshqarish loyihasi ishlab chiqiladi. YeTTB va XMKning ishchilarni joylashtirish bo'yicha yo'riqnomasiga muvofiq, ishchilarni joylashtirish rejasi tayyorlanadi.

Potensial ijtimoiy xavflar va ta'sirlar boshqaruv siyosati va tartiblarini, masalan, kadrlar siyosati, ishchilarning xulq-atvor kodeksi va xavfsizlik xodimlari uchun maxsus xulq-atvor kodeksi, Xavfsizlik rejasi va mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi rejasini tayyorlash orqali yumshatiladi. Mahalliy xaridlar rejasini tayyorlash orqali mahalliy ishchilarni ish bilan ta'minlash maksimal darajaga ko'tariladi; ammo malakasiz va yarim malakali ish o'rnlari vaqtinchalik va soni kam bo'ladi.

Loyiha O'zbekiston talablariga javob berish bilan birga, ishchilarni boshqarishda xalqaro standartlarga, jumladan, ish vaqti, haq to'lash va ta'tilni tartibga soluvchi YeTTB va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) talablariga javob berish majburiyatini oladi. Shuningdek, ular bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishni taqiqlaydi. Asosiy pudratchi, shuningdek, ISO45001 (yoki unga tenglashtirilgan) bo'yicha mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi aspektlarida xalqaro sertifikatga ega bo'lishi kerak. Ishchilar uchun ularning ishi bo'yicha tegishli treninglar o'tkaziladi, shuningdek, ular uchun sanitariya-maishiy va mehnat sharoitlari ta'minlanadi. Ishchilar o'zlarining mehnat faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolar haqida shikoyat qilishlari mumkin, shu jumladan ularni anonim tarzda topshirishlari mumkin. Oqibatda ulardan mutlaqo qasos olinmaydi. Loyiha sxemasi xavfsizlik talablarini o'z ichiga oladi va SMZ aniqlangan. Zarur bo'lganda, to'siqlar, belgilar va boshqa xavfsizlik vositalari ta'minlanadi. "O'MET" AJ yerni olish ta'sirini boshqaradi va TTTR tayyorlanadi; ushbu TTTR loyiha ta'siriga uchragan odamlar uchun tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat bilan aloqalar bo'yicha xodim (CLO) loyiha haqida jamiyat a'zolarini xabardor qilish uchun keng qamrovli manfaatdor tomonlarni jalb qilish kampaniyasini o'tkazadi. Jamoa a'zolarining shikoyatlarini topshirish uchun jamoa shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi yaratiladi. Eksplyuatsiya va texnik xizmat ko'rsatish vaqtida barcha javobgarlik "O'MET" AJ ga o'zlarining korporativ operatsion tizimlariga muvofiq mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish uchun o'tadi.

## **6 Xulosa**

EITB ning umumiy natijasi shundan iboratki, Loyiha samarali va hayotiy energiya infratuzilmasining loyihasi bo'lib, mamlakatning qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishi va tarmoqni mustahkamlash ehtiyojlari uchun markaziy o'rin tutadi. Loyiha ishlab chiqish uchun yaroqli deb hisoblanadi va EITBda belgilangan ta'sirni yumshatish choralari amalga oshirish sharti bilan milliy me'yoriy-huquqiy baza va YeTTB EIS 2019 talablariga javob bera oladi. ESIAda belgilangan chora-tadbirlar Loyihaga salbiy ekologik yoki ijtimoiy ta'sirlarni va muammolarni ishchilar, ta'sirga uchragan jamoalarga va atrof-muhitga, shu jumladan, biologik xilma-xillikning ustuvor ob'ektlari va muhim yashash muhitga ta'sir qilishning oldini olish yoki oldini olish mumkin bo'lmagan hollarda minimallashtirish, yumshatish yoki ular uchun kompensatsiya to'lash imkonini beradi. EITB va EIBRda bayon etilgan asosiy majburiyatlar Kreditorning Ekologik va Ijtimoiy Harakat Rejasiga (EIHR) kiritilgan bo'lib, u YeTTB bilan moliyalashtirish shartnomasiga shartnoma majburiyati sifatida ilova qilinadi.

Ijtimoiy ta'sirlar mahalliy jamoa a'zolariga (Uzunquduq, Sarimoy va Nukus qishloqlaridan), yer huquqi egalariga, yerdan foydalanuvchilarga (cho'ponlarga) va Loyiha ishchilariga ta'sir qilishi mumkin. Biroq, aniqlangan Loyiha ta'sirining aksariyati Loyiha qurilishining vaqtinchaligi va Loyihadan mahalliy jamoalargacha bo'lgan masofa tufayli ahamiyatsiz deb baholandi. Yerdan foydalanuvchilarga ta'sirni kamaytirish maqsadida Loyiha trassasiga o'zgartirishlar kiritildi va ta'sirni yumshatish choralari belgilandi, ular amalga oshirilgach, ijtimoiy ta'sirlar xavfini past yoki ahamiyatsiz darajaga kamaytiradi. Loyiha O'zbekistonga yanada ishonchli elektr energiyasi bilan foyda keltiradi va loyihada band bo'lgan ishchilar va korxonalar uchun ish bilan ta'minlash va



xaridlar bo'yicha kichik miqdordagi imtiyozlar, jumladan, mahalliy iqtisod uchun mumkin bo'lgan ijobiy foyda keltiradi.

Biologik xilma-xillikka ta'sir odatda past bo'lib, bunda muhim yashash muhitini qo'zg'atuvchi omillar yo'q, 24 ta Biologik xilma-xillikning ustuvor ob'ekti, har qanday ABH yoki QMQH ta'sir qilish potentsiali yo'q va zich migratsiya zonalari yoki sezgir turlarning yuqori zichligi yo'q. Loyiha biologik xilma-xillikka ta'sirni yumshatish ierarxiyasiga rioya qilgan holda avvalgi xalqaro amaliyotga muvofiq yumshatadi, jumladan, butun liniya uchun "yirtqich hayvonlar uchun xavfsiz" loyihalarni tanlash, suv qushlarining to'qnashuvi xavfi yuqori bo'lgan liniyaning barcha qismlarida QPO'Q o'rnatishni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar majmui, va qurilishdan oldingi tadqiqotlar, qutqarish va sezgir o'simliklar va sudraluvchilarni ko'chirish, shuningdek, qurilish bosqichidagi biologik xilma-xillikka ta'sirni yumshatish bo'yicha an'anaviy chora-tadbirlar to'plami.

## Atamalar lug'ati

Atama	Tavsifi
Ta'sir hududi (TH)	Loyihaning ta'siri sezilishi mumkin bo'lgan hudud, shuningdek, Loyiha tomonidan qo'zg'atilgan rejadan tashqari o'zgarishlar yoki kumulativ ta'sirlar.
Bog'liq ob'ektlar	Loyiha doirasida moliyalashtirilmagan ob'ektlar. Agar Loyiha mavjud bo'lmaganda bu ob'ektlar qurilmagan yoki kengaytirilmagan bo'lardi, shuningdek ularsiz Loyihani amalga oshirish imkoni bo'lmasdi.
Dastlabki tadqiqotlar	Mavjud jismoniy, biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, sog'liqni muhofaza qilish, ish kuchi, madaniy meros yoki Loyihani ishlab chiqishdan oldin tegishli deb hisoblangan boshqa o'zgaruvchilarni tavsiflash uchun ma'lumotlarni yig'ish.
Biologik xilma-xillik	Tirik organizmlarning barcha manbalardan, jumladan, quruqlik, dengiz va boshqa suv ekotizimlari va ular tarkibiga kiradigan ekologik komplekslar o'rtasidagi xilma-xillik. Bu turlar ichidagi, turlar orasidagi va ekotizimlarning xilma-xilligini o'z ichiga oladi.
Tasodifiy topilmalar	Ilgari dastlabki tadqiqotlarda tan olinmagan, qidiruv faoliyati davomida topilgan Arxeologik yoki madaniy yodgorliklar va artefaktlar, jumladan, sopol buyumlar, asboblari, binolar, qabristonlar va hokazolar.
Maslahatlashuv	Maslahatlashuv Loyiha kompaniyasi va uning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi ikki tomonlama muloqot jarayonidir. Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv ma'lum bir vaqt ichida konstruktiv tashqi aloqalarni boshlash va davom ettirishdan iborat.
Tanqidiy yashash muhiti	O'zgartirilgan yoki yuqori biologik xilma-xillik qiymatini qo'llab-quvvatlaydigan tabiiy yashash joylari, masalan, yo'qolish arafasida turgan yoki yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarning omon qolishi uchun zarur bo'lgan yashash joylari.
Madaniy meros	Odamlar o'zlarining doimiy o'zgarib turadigan qadriyatlarini, e'tiqodlarini, bilimlari va an'analari aksini va ifodasi sifatida aniqlaydigan manbalar.
Kumulativ ta'sirlar	Mavjud Loyihalar yoki faoliyatlar va/yoki kutilayotgan kelajakdagi Loyihalar yoki faoliyatlardan kelib chiqadigan bir nechta ta'sirlarning kombinatsiyasi.
To'g'ridan-to'g'ri ta'sir hududi	Ajratilgan mintaqada, qurilish maydonchalari, ishlarni olib boorish hududi va ekspluatatsiya davomida ta'sirga uchragan hudud kabi Loyihalarning ta'sir hududini anglatadi (masalan, yo'l harakati tartibi).
Oqova suvlar	Tozalash inshootlari, kanalizatsiya yoki sanoat chiqindilaridan oqib chiqadigan tozalangan yoki tozalanmagan oqova suvlar.
Elektromagnit maydonlar	Elektr maydonlari (ELM) kuchlanish natijasida hosil bo'ladi va kuchlanish kuchayishi bilan kuchini oshiradi. Elektr maydonining kuchi har bir metrga (V / m) voltlarda o'lchanadi. Magnit maydonlarni tok ishlab chiqariladi, bu elektr

Atama	Tavsifi
	oqimini o'lchaydi, bu esa tok kuchayishi bilan kuchini oshiradi. Elektromagnit maydonlar tesla (T) birliklarida o'lchanadi.
Chiqindilar	Tutun quvurlari, boshqa shamollatish teshiklari va tijorat yoki sanoat obyektlari yuzasidan; turar-joy binolarining mo'rilaridan; transport vositalari, lokomotivlar yoki samolyotlarning chiqindi gazlaridan atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar.
Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB)	Taklif qilingan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, nima bo'lishi mumkinligi haqida qaror qabul qiluvchilarga proaktiv ravishda maslahat beradigan istiqbolli vosita. Ta'sir - bu jamiyat uchun ekologik, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar. Ta'sirlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin va atrof-muhitga, jamoalarga, inson salomatligi va farovonligiga, barqaror rivojlanishning istalgan maqsadlariga yoki ularning kombinatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.
Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR)	EITB doirasida aniqlangan xavf va ta'sirlarni oldini olish, minimallashtirish va kompensatsiya qilish / qoplash orqali bartaraf etish va yumshatish bo'yicha kompaniyaning majburiyatlarini umumlashtiradi va ushbu yumshatish choralarini nazorat qiladi.
Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT)	Loyihaning umumiy boshqaruv tizimining bir qismi bo'lib, u Loyihani ekologik va ijtimoiy baholash orqali ishlab chiqilgan Loyihaga xos boshqaruv dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tuzilma, mas'uliyat, amaliyot va resurslarni o'z ichiga oladi.
Ilg'or xalqaro sanoat amaliyoti (IXSA) yoki Ilg'or xalqaro amaliyot (IXA)	Global yoki mintaqaviy darajada bir xil yoki shunga o'xshash sharoitlarda bir xil turdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan malakali va tajribali mutaxassislardan oqilona kutilishi mumkin bo'lgan professional mahorat, tirishqoqlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'rishni namoyish etish. Bunday ishlarining natijasi Loyihaning o'ziga xos sharoitida Loyihada eng mos texnologiyalardan foydalanish bo'lishi kerak.
Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi	Loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy ko'rsatkichlari bo'yicha ta'sirga uchragan jamoalarning tashvishlari va shikoyatlarini qabul qilish va hal qilishga yordam berish uchun Loyiha tomonidan taqdim etilgan tartib.
Yashash muhiti	Tirik organizmlar birikmalarini va ularning tirik bo'lmagan muhit bilan o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlaydigan quruqlik, chuchuk suv yoki dengiz geografik birligi yoki havo yo'li.
Xavfli chiqindilar	Noto'g'ri boshqarilsa, inson salomatligi yoki atrof-muhit uchun jiddiy yoki potentsial xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan jamiyatning qo'shimcha

Atama	Tavsifi
	mahsulotlari. Xavfli chiqindilar sifatida tasniflangan moddalar kamida to'rtta xususiyatga ega - alanganish, korroziya, reaktivlik yoki toksiklik - yoki maxsus ro'yxatlarda mavjud.
Mahalliy xalqlar	Turli darajada quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan alohida ijtimoiy va madaniy guruh: (a) o'zini alohida mahalliy ijtimoiy va madaniy guruh a'zolari sifatida identifikatsiya qilish va bu o'ziga xoslikni boshqalar tomonidan tan olish; b) geografik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi yashash joylari, ajdodlardan qolgan hududlari yoki mavsumiy foydalanish yoki ishlash hududlariga, shuningdek, ushbu hududlardagi tabiiy resurslarga jamoaviy bog'lanish; (c) asosiy jamiyat yoki madaniyatdan ajralib turadigan yoki alohida bo'lgan odatiy madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy institutlar; va (d) ular yashaydigan mamlakat yoki mintaqaning rasmiy tili yoki tillaridan ko'pincha farq qiladigan alohida til yoki dialekt.
Bilvosita ta'sir doirasi	Loyiha bevosita nazorati ostida bo'lmagan faoliyat bilan birgalikda Loyiha bilan bog'liq o'zgarishlarga duch kelishi mumkin bo'lgan hududni o'z ichiga oladi.
Axborotni oshkor qilish	Oshkora qilish ma'lumotni manfaatdor va ta'sirga uchragan tomonlar (manfaatdor tomonlar) uchun ochish demakdir. Axborotni manfaatdor tomonlarga tushunarli tarzda yetkazish manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jarayonida muhim birinchi va davom etuvchi qadamdir. Ma'lumot maslahatlashuv va xabardor ishtirok etishdan tortib muzokaralar o'tkazish va shikoyatlarni hal qilishgacha bo'lgan barcha boshqa hamkorlik qilish tadbirlaridan oldin oshkor etilishi kerak. Bu hamkorlik qilishni yanada samarali qiladi.
Nomoddiy madaniy meros	2003 yilda qabul qilingan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi UNESCO Konventsiyasiga muvofiq nomoddiy madaniy merosning namoyon bo'lishiga quyidagilar kiradi: Og'zaki urf-odatlar va iboralar, jumladan, til; sahna san'ati; Ijtimoiy amaliyotlar, marosimlar va bayram tadbirlari; Tabiat va koinot haqidagi bilim va amaliyotlar.
Yerni o'zlashtirish	Loyiha maqsadlari uchun yer olishning barcha usullari, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri sotib olish, mulkni olib quyish va kirish huquqini, masalan, servitut yoki ajratilgan mintaqani qo'lga kiritish.
Tirikchilik	Ish haqi, qishloq xo'jaligi, baliq ovlash, yem topish, boshqa tabiiy resurslarga asoslangan tirikchilik, mayda savdo va ayirboshlash kabi shaxslar, oilalar va jamoalar tirikchilik qilish uchun foydalanadigan vositalarning to'liq to'plami.
Kattalik	Kattalikni baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, Loyiha bilan bog'liq potentsial ta'sirning kattaligi ijobiy yoki salbiy deb tasniflanadi. Ikkinchidan, foydali yoki salbiy ta'sirlar bir nechta parametrlarni hisobga olgan

<b>Atama</b>	<b>Tavsifi</b>
	holda katta, o'rtacha, kichik yoki ahamiyatsiz deb tasniflanadi.
O'zgartirilgan yashash muhiti	Tabiiy yashash muhiti aniq o'zgargan, ko'pincha qishloq xo'jaligi hududlari kabi begona o'simlik va hayvonlar turlari kiritilgan yer va suv hududlari.
Tabiiy yashash muhiti	Biologik jamoalar asosan o'simlik va hayvonlarning mahalliy turlaridan tashkil topgan va inson faoliyati hududning asosiy ekologik funksiyalarida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmagan quruqlik va suv hududlari.
Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik	Ishchilarni ish joyida yoki ish paytida xavfli omillar ta'siri bilan bog'liq jarohatlar yoki kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.
Loyiha ta'siriga uchragan shaxslar	Loyihadan bevosita yoki bilvosita, shu jumladan kumulativ ta'sir natijasida ta'sirga uchragan yoki uchrashi mumkin bo'lgan shaxslar, ishchilar, guruhlar yoki mahalliy jamoalar.
Sezuvchanlik	Retseptorlarning sezgirligi populyatsiya tahlili (shu jumladan yaqinlik/ko'plik/zaiflik), joy va uning atrofidagi hududning biologik xususiyatlarning mavjudligi, tuproq, qishloq xo'jalik yaroqliligi, geologiya va geomorfologiya, suvli qatlamlar va suv oqimlarining yaqinligi, mavjud havo sifati, har qanday arxeologik mavjudotlar mavjudligi va boshqalar asosida aniqlanadi.
Ahamiyat	Ta'sirning ahamiyatida katallik va sezgirlik mezonlari o'rtasidagi o'zaro aloqani hisobga olinadi.
Qattiq chiqindilar	Suyuqlik miqdori past, ba'zida xavfli bo'lgan material. Bu maishiy chiqindilar, sanoat va tijorat chiqindilari, kanalizatsiya loylari, qishloq xo'jaligi va chorvachilik va boshqa tegishli faoliyat natijasida hosil bo'lgan chiqindilar, vayronagarchilik chiqindilari va kon qoldiqlarini o'z ichiga oladi.
Manfaatdor tomonlar	Loyihadan bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, Loyihaga qiziqishlari yoki uning natijalariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan shaxslar yoki shaxslar guruhlari.